

Zebo OMONOVA

TOPAMIZ, TEZ AYTAMIZ



Toshkent
«Yangiyo'l poligraf servis» MCHJ
2012-y.

UDK: 398.61

BBK 84(5O')6 - 935. ар005.
O-56

Omonova, Zebo

O-56 Topamiz, tez aytamiz / Z. Omonova; muharrir: A'zam Xo'jaqulov. - Тошкент:
Yangiyo'l poligraf servis, 2012 - 16 b.

UDK: 398.61

ISBN 978-9943-366-74-9

ББК 84(5О')6

Yoshlar – kelajagimiz, orzu-umidlarimiz davomchilari. Shu bois yurtimizda ular tarbiyasiga e'tibor katta. Bog'cha yoshidanoq ularning tafakkur dunyosini shakllantirishga, tilini biyron qilishga harakat qilamiz.

Qo'lingizdagi ushbu mo'jaz kitob aynan shu maqsadda chop etilgan va o'ylaymizki, bolajonlarimizga manzur bo'ladi.

10 40532
0

2012/201	Alisher Navoiy
	nomidagi
A	O'zbekiston MK
12349	

ISBN 978-9943-366-74-9


© Z.Omonova, 2012-y.

© «Yangiyo'l poligraf servis» MCHJ, 2012-y.



* * *

Uni ochganing sayin,
Semirib borar tayin.
Har qati peshonada
Ajin tortadi mayin.
Eslab topsang uni gar,
Deyishadi
(kalendari)



* * *

Izlansang, yechsang agar,
U albat aqling peshlar.
Dema jumboqli zebra,
Bilsang bu fan
(algebra)




* * *

Uningsiz hayot bo‘lmas,
Gullar ochilmas, kulmas.
Oqib tursa sharqirab,
Bu ko‘hna borliq so‘lmas.
Tushar tog‘ boshidan huv,
Jon bag‘ishlar bizga
(Ans)



* * *

Kunduzi tortib xira,
Ko‘zga ko‘rinmas sira.
Ammo tunda chiqvolib,
Turar tabassum solib.
Yorishar yeru samo,
Uning nomi
(oymomo)



* * *

Uning mehnati og‘ir,
Har kun yonadi bag‘ir.
Gar bo‘lmasa bir nafas,
Ovqat ham, choy qaynamas.
Kecha-yu kunduz ishda,
Toping, bu
(gaz plita)

* * *

Qo‘lda turar ixchamgina,
Undan also qilmam gina.
Kunlik kitob, daftar unda,
Tartib bilan turar kunda.
O‘ylab toping bir zumda,
Uning nomidir
(sumka)



* * *

Olislarni ko‘zlab turar,
Ko‘rmaganing so‘zlab turar.
Ikki ko‘zi bordir uning,
Siz ham qo‘lga olib ko‘ring.
Huv ana, ko‘rindi in,
Topaqoling, bu -
(durqin)

* * *

Bizdan olisda ancha,
Baliq, kit bor bir qancha.
Boqsang, qo‘rquving oshar,
Dilda hayajon toshar.
Tuyular go‘yo cheksiz,
Ko‘rganimizda
(zifenged)





* * *

Derazaga tut sang gar,
Quyosh nurin bekitar.
Turi juda xilma-xil,
Tanlab-tanlab mosin il.
Topmasang qilma zarda,
Javobi oddiy:
(parida)



* * *

Qo'l-oyoqsiz ochsa eshik,
Yopiladi tuynuk, teshik.
Gulu yaproqlarni uzar,
Beboshligi olam buzar.
Esib tashqarida.....,
O'chsa chiroq, qo'lga sham ol.

(shamol)



* * *

Qanoti yo'q, uchadi,
Yer, samoni quchadi.
Uning shashtidan hatto,
Qum barxani ko'chadi.
Ko'rganda bo'limagin lol,
Uning nomidir
(shamol)

* * *

Har bobda sir yashirin,
O'qib, anglaymiz sirin.
O'yinni nari itar,
O'qi, yo'ling yoritar.
Unga etsang gar xitob,
Bilim beradi
(kitob)





* * *

Uchqur ot kabi chopqir,
Zumda oshar dala, qir.
Aslo turmas bir joyda,
Istasak, bo'lar Oyda.
Otdek chopqir, bilib ol,
Uni deyishar..... .

(xayol)

* * *

Bordir bir necha ko'zi,
Ko'rinar ko'cha yuzi.
Changni o'zida tutar,
Undan yorug'lik o'tar.
Agar kimdir so'rasa,
Aytaver, bu

(deraza)



* * *

Zar uloq, zar-zar uloq,
Degaysiz naq zar quloq.
Ilonizidir biroq,
Ko'rinar yashil, ko'k, oq.
Xayolga o'xshar go' yo,
Hayotdan manbai

(daryo)

* * *

Rayhonmi bu, zanjabil?
Kel, yaxshisi hidlab bil.
Ariga tutsa kosa,
Asal oladi rosa.
Nafis ifor – nedir ul?
Men topdim, bu -

(atirgul)



* * *

Tog‘ni qilsangiz so‘roq:
- Nega boshing qishda oq?
U aytar: “Bu - ro‘molim,
Omon saqlar ahvolim.
Qaddim u bilan tikdir,
Butun olam tirikdir”.
U borki, dunyo gulzor,
Uning nomi erur
(zor)



* * *



Sizga aytmog‘im shuki,
Olma desam, bor tuki.
Ko‘p dardga davodir u,
Ko‘proq yeng, sabog‘im shu.
Mevalarningdir begi,
Nomin aytsam, u
(beh) .

* * *

Qabziyatga davodir,
Yurakka kuy, navodir.
Unga beradi quvvat,
Ko‘rsatsangiz muruvvat.
Undan qilsangiz sharbat,
Kuch ato etar albat.
Ming bir dardni yengib u,
Yaxshilik qilar mangu.
E’zozlang, oling terib,
Derlar nomini
(o,nik)





* * *

Uni yesangiz sahar,
Malham o'rnini bosar.
Saxaroza, glukoza
Tarkibida ko'p rosa.
Mazasin tating bir zum,
Sizga kuch berar.....
(unzn)




* * *

Sizga bitta so'z qotay,
Nomin aytmayman atay.
Ta'rifiga so'z ojiz,
Sevib yeymiz barchamiz.
Shoxida go'yo zanjir--
Tizilib turar ..
(ansir)

* * *

Har tong tayin otadi,
Kechqurun u botadi.
Dunyo yuzin ochadi,
Duru gavhar sochadi.
Cho'kar zulmat, ko'zda yosh,
Agar bo'lmasa
(quyosh)



* * *

Ola-bula po'stini,
Polizlardadir "in"i.
Yesangiz deysiz yana,
Yayrab ketadi tana.
G'arq pishadi yozu kuz,
Shirin sharbatli
(tarvuza)

* * *

O'zi bitta, ortidan
Necha kishi yugurar.
Ogoh bo'l, darvozadan –
Kirsa agar gol bo'lar.
Qiyinmas, o'ylama ko'p,
Uning nomi bilsang,
(d,oi)



* * *



Chiroylidir u bor bog‘,
Ochiladi bahor chog‘.
Mevasidan olinar,
Quvvatga boy totli yog‘.
Hammaga birdek yoqar,
Aytsam, u -
(kunqabodar)

* * *

Asrlar ixtirosi,
Ilm izlaganlar rozi.
Qay sohadan ber savol,
Javob beradi darhol.
Emas u Mars, Yupiter,
Hozirjavob
(kompyuter)



* * *



Ishimizda madadkor,
Har dam ko'makchi, dastyor.
Olisdan, ham yaqindan
Zumda etar xabardor.
Raqamlarin tergan on,
Bog'lab berar
(telefon)



* * *

Ko‘ngling ravshan etadi,
Dildan g‘ubor ketadi.
Taralganda nafis sas,
Tashvish unutdir birpas.
Tingla, uni sen ham suy,
Uning nomi bilsang,
(kuy)



* * *

So‘zлari dona-dona,
Mehribon, xuddi ona.
Yo‘l ko‘rsatar beminnat,
Qalbga beradi ziynat.
O‘gitlari shunday soz,
Bizga qadrdon
(ustoz)

* * *

Sayroq qushim sayrongina,
So‘zlaganda biyrongina.
U bor joyda tushunamiz,
Bir-birovni osongina.
E’zoz etib qadrini bil,
Baxtli etgan bizni bu
(il)






* * *

Uchib yurar vizillab,
Yemish izlar izillab.
O'zi juda chiroyli,
Rangdor xoli bor oyli.
Gullarda qolmas izi,
Bu hasharot

(izibuox)



* * *

Qog'ozda qolar izi,
Ochiladi qalb ko'zi.
To'kiladi undan dur,
Olasan o'qib surur.
Dil yuksalar naq qoya,
O'qib tursang



* * *


Quyosh, ammo kichkina,
Osiq turar jimgina.
Kamtarindir anchayin,
Uyni yoritar tayin.
Nomin aytmayman biroq,
Topaqoling, bu



* * *

Po'stini bor yam-yashil,
Polizda o'sadi, bil.
SUVI chanqoqni bosar,
Barchaga birdek yoqar.
O'rtoq , top etmay g'iring,
Uning oti

(suvipoq)



* * *

Qaddingni raso tutar,
Bukrilik nari ketar.
To‘g‘ri o‘tir, to‘g‘ri yoz,
Sen uchun u juda soz.
Aytayin necha marta,
Uning nomidir
(parra)

* * *


Tishlari bor sanoqsiz,
Sinsa agar, yaroqsiz.
Sochni tartibga solar,
Tarasang, bosh dam olar.
Aqlingni ishlat tezroq,
Har kun kerak-ku

(tarrog)



* * *

Ortimizdan qolmas hech,
Ergashib yurar kun, kech.
Bukilsak bukiladi,
Yerga naq to‘kiladi.
Goh cho‘chib deymiz qoya,
Aslida-chi, bu -
(soya)



TEZ AYTISHLAR

- * Adiba Azizaning angishvonasini asalga almashtirdi.
- * Anora Anvarga asal aynimasligini aytdi.
- * Baxtiyor bilan Bahodir badiani bahs bilan baholashdi.
- * Vali varaqqli varrakni varillatdi.
- * Gulmurod gulchi Gulsunning gulgordagi gullarini gurkiratdi.
- * Gulnoraning guldondagi gullari gurkirab gulladi.
- * Go‘zal gaplarini go‘zal gullarga “gulladi”, go‘zal gullar Go‘zalning gaplarini galma-gal guldonlarga gulladi.
- * Davlat dasasining dardiga darmondori darakladi.
- * Durdonaning do‘ppaygan do‘rdoq dudog‘ning do‘ngligi danak borligidan darak.
- * Jobir jahlini “jomadon”ga joyladi.
- * Zohidning zalvorli zambili zanglabdi, zanglagan zambilning zalvoridan zarangtosh zirillabdi.
- * Zahro Zevarning ziragini zirakchiga zarlatibdi.
- * Ibat ingichka ignaga ingichga ip ildi.
- * Yelkan yelday yeldi.
- * Komil Karimning kuchugini kaltakladi, kaltaklangan kuchuk Komilga akilladi.
- * Kamol kamalakyoy kamonini kerilgancha kerib-kerib ko‘rsatdi.
- * Latofat Latifni laqillatdi.
- * Madina Maftunaga maftun, Maftuna Madinaga maftun.
- * Olim olmani oynaga otdi, otilgan olmani Oynisa olvoldi.
- * Po‘lat paravozni panalab paqilloq paqillatdi.
- * Rayhona ravvoqdagi rasmning ramkasini rostladi.
- * Sobir sayroqi sa’vani savatga soldi.

- * Solih Sodiqqa sidqidildan sadoqatli.
- * Samandar sandalning sinchini sug'urdi, sinchidan sitilgan sandalni sindirdi.
- * Saman Samandarga sollanib-sollanib so'zлади.
- * Salim sakrayotgan saksovulzorda sa'va sayrardi.
- * Tolib tomdan temir tesha topdi, temir teshani tomda to'qillatdi.
- * Tolmasning toshdek tarog'i tilladan mish.
- * Tulkinning terisidan Tolibga to'n tikishdi, Tolibning to'ni torligidan tortilib taranglashdi.
- * Tirkash tog'amning traktori tarillab taratgan tutunidan ta'b tirriq tortdi.
- * Toshoynaning toshi toshoyna tepasida tarang tortilgan to'rni teshdi.
- * Charos chiroylı, charog'on chamanzorda chanqovuz chaldi.
- * Chamangul childirmanni childiratib chaldi.
- * Shamolning shovullagan shovqini Shomilni shoshirdi.
- * Shahriyor shaharning shabadasidan shamolladi, shahar shabadasi Shahriyorning shashtini shoshirdi.
- * Yormat yolg'izlik yomonligini Yorongulga yomonladi.
- * Yashnar yaxshilik yaxshiligidan yanada yasharardi.
- * Yulduz yulduzlarga yuzlandi.
- * O'tkir O'ktamning o'kinishiga o'kindi.
- * Qamariddin Qamarning qamchisidan qamishni qayrigandek qayrilib qoldi.
- * Qobil Qodirning qolipdag'i "qilig'i"ga qoyil qoldi.
- * G'ani g'aladondagi g'altakni g'ildiratdi.
- * Halima Halimning halimdek hilpiragan holatini holvaytardek hovillatdi.
- * Hasan-Husanning "hunar"idan hovlisidagi ho'kizlar hurkishdi.
- * Hamid Hamdamga hamdard, Hamdam Hasanga hamdard.

Zebo OMONOVA

TOPAMIZ, TEZ AYTAMIZ

Toshkent – «Yangiyo'l Poligraf Servis» – 2012

Nashriyot litsenziyasi AI № 185 10.05.2011 y.

Muharrir:
A'zam XO'JAQULOV

Dizayner va texnik muharrir:
Madina ABDULLAYEVA

Musahhih:
Guli Nigor AVAZOVA

Bosishga ruxsat etildi: 20.11.2012. Bichimi: 60x84 1/8.
Kegli: 14 Times New Roman gamiturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Bosma. t. 2,0. Jami nusxasi 4000.
Buyurtma № 54

Sharhnomalar № 66

Kitobning original maketi «Eko olam» MCHJ ijodiy uyida tayyorlandi.
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

«Yangiyo'l poligraf servis» MCHJ bosmaxonasida bosildi.
112001, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Samarqand ko'chasi, 44-uy.